

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGLARI TA'LIM SAMARADORLIGINI MILLIY O'YINLARI ASOSIDA SAMARALI TASHKIL QILISH

Iklasova Nafisa Sharibaevna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani
2-sonli DMTT direktori*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodning jismoniy jihatdan to'kis sog'lom mehnatga va Vatanni himoya qiluvchi tarzida o'sishidan xalq ham, jamiyat ham manfaatdor. Buning uchun bolalar jismoniy madaniyat bilan chuqur shug'ullanishlari, turli milliy o'yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari kerak haqida aytib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье и народ, и общество заинтересованы в воспитании молодого поколения физически здоровым трудом и защитой Родины. Для этого было отмечено, что дети должны активно заниматься физической культурой и приобретать навыки использования различных народных игр.

Abstract. In this article, both the people and the society are interested in the growth of the young generation in a physically healthy way of working and protecting the Motherland. For this, it was mentioned that children should be deeply engaged in physical education and acquire the skills of using various folk games.

Kalit so'zlar: xalq o'yinlari, yosh avlod, bolalar, ta'lim jarayonlari, sog'lom turmush tarzi, milliy sport o'yinlari, milliy xalq o'yinlari, epchillik.

Ключевые слова: народные игры, подрастающее поколение, дети, образовательный процесс, здоровый образ жизни, национальные спортивные игры, национальные народные игры, ловкость.

Key words: folk games, young generation, children, educational processes, healthy lifestyle, national sports games, national folk games, dexterity.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim tizimida olib boriladigan ishlar mazmuni aniq belgilab berildi. Unga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimiga

innovatsiyalarni, ilgʻor pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, MTT larda bolalarni rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish kabi vazifalar belgilab qoʻyildi. Qaror bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat



oʻquv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Endi bolalarni koʻproq fikriy faollikni talab etuvchi oʻyinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) oʻyinlar qiziqтира boshlaydi. Bolalar tabiat xodisalari, jonivorlar hayoti va xarakatlariga taqlid qilib, oʻynar ekan, shu qatorda ularning maʼnosini anglay boshlaydi. Asta-sekin hayotiy tajriba ortiradi. Qiyinchiliklarni engishga oʻrganadi. Unda harakat koʻnikmalariga hosil boʻladi va tasavvuri tobora boyib boradi. Bundan tashqari, oʻyinlar bolalarning jismoniy barkamol boʻlishi uchun uchungina emas, balki ularga, aqliy, maʼnaviy va ahloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Koʻplashib oʻynaladigan oʻyinlarda bolalar maqsadga erishi uchun farosati va tadbirkorligini, qatʼiyatini koʻrsatish, jamiyat oldida faqat oʻzining emas, balki oʻrtoqlarining hatti harakatlari uchun ham javobgarlik hissini seza olishni oʻzida shakllantirib borishi zarur. Milliy oʻyinlar jarayonida erishilgan ilm va malakalardan ijodiy foyjalanish layoqatini bolalarda tarbiyalashga eʼtibor qaratish lozim, chunki bunday layoqatga bolalar oʻzlaridagi ishchanlik, mustaqillik, ziyraklik, topqirlik, hozirjavoblik kabi ezgu fazilatlarini tufayli erishadilar. Bolalarda ijobiy hissiyotlarni, odamlar bilan samimiy va quvnoq munosabatda boʻlish tuygʻularini tarbiyalash, Shuningdek, yuz bergan salbiy ruhiy holatlarni tez bartaraf qila olish layoqatini rivojlantirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Buning zarurligi ijobiy hissiyotlar organizmdagi barcha aʼzolarga foydali taʼsir koʻrsatishida, harakat malakalarining jadal va mustahkam shakllanishini taʼminlashida koʻrinadi. Milliy xalq oʻyinlariga asoslangan jismoniy madaniyat estetik tarbiyani amalga oshirishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Xalq oʻyinlarini bajarish jarayonida estetik zavqni idrok qilish va oʻziga singdirishni, goʻzallik, nafosat, maʼnodorlik, qad-qomat, liboslar bejirimligi, oʻz atrofidagi barcha narsalarni tushunish, toʻgʻri qadrlashni rivojlantirish, estetikaga va oʻz xulq-atvoriga gard yuqtirmaslikka boʻlgan moillikni, ilayotgan

ishi, aytayotgan gapi va barcha hatti-harakatida qo'rslik, dag'allikka aslo yo'l qo'yilmaslikni rivojlantirish lozim bo'ladi.

Kutilayotgan natijalar: Pedagogning rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat jarayonidan keng foydalanishi natijasida quyidagicha ijobiy samaradorligiga erishish mumkin.

- + tarbiyalanuvchilarni erkin vaqtini maroqli va mazmunli o'tkazishga ;
- + tarbiyalanuvchilarni mustaqil harakat qilishga va jamoa bilan ijtimoiylashuvini ta'minlashga ;
- + tarbiyalanuvchilarni o'ziga nisbatan ishonch uyg'otish hamda o'z ishini faxrlanish tuyg'ularini uyg'tishga;
- + pedagog faoliyati jarayonida rivojlantiruvchi muhitini ta'minlashga;
- + mashg'ulotlar uchun ajratilgan vaqtni amaliy va samarali o'tkazishga;
- + mashg'ulotlarni "o'yin" tarzida olib borishga;
- + O'qitishning motivatsiyasini kuchaytirishga;
- + Bolalarni turli ko'rinishidagi faoliyat turlariga jalb qilishga;
- + Fikrlash, mulohaza qilish va bahslashishga;

Milliy sport o'yinlari bebaho qadriyat. Milliy sport o'yinlari bilan o'tmishda ota-bobolarimiz bolalarni 2-3 yoshdan shug'ullantira boshlaganlar. Ulug' obokalonimiz Amir Temur davrida o'g'il bolalarga ot minish, chavandozlik bilan shug'ullanish 3 yoshdan o'rgatilganligi ma'lum. 2-3 yoshdan suzish bilan shug'ullanib, suv hovuzi ustidan tortilgan arqondan yurishga bo'lajak darvozlarni juda kichiklikdan o'rgatganlar.

a) Milliy sport o'yinlari bolalarni kichik yoshidan boshlab jismoniy, aqliy va axloqiy qilib tarbiyalashning muhim vositasi sifati qaraladi. O'g'il bolalar o'z aka-ukalari, mahalladosh, o'rtoqlari bilan kurash mashqlarini xuddi shunday kichik yoshlardan boshlaganlar. Qiz bolalar esa "Arg'imchoq" "Tortishmachoq", "Oq terakmi, ko'k terak", "Bekinmachoq", "otib qochar" va shunga o'xshash otaliqqa, onalikka, mehnatga tayyorlovchi milliy sport bilan juda kichiq yoshlaridan boshlab shug'ullanishga jalb qilganlar.

b) Milliy sport va o'yinlar sog'liqni saqlash, kasb-korga bog'liq kasalliklardan himoyalashning sinalgan vositasi ekanligini hech kimga uqtirib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. Chidamlilik, zukkolik, ziyraklik, chaqqonlik va hakoza kabi yaxshi fazilatlar sport orqali va xususan milliy o'yinlar orqali bolada rivojlanishi ota-bobolarimizga qadim-qadimdan ma'lum. Turon zaminida yashab kelgan avlod ajdodlarimiz milliy o'yinlarini e'zozlashganlar va katta e'tibor berib kelishlari hech kimga sir emas. Jismoniy tarbiya va sport kishining hayotiy istiqbol yo'lini nurli qilishga yordam beradi. Sog'lom va kuchli bo'lish

inson uchun bebaho boylik. Sogʻlom odam hayot yoʻlini topadi, belgilangan orzu-umidlariga mehnati bilan erisha oladi. Milliy oʻyinlar orasida insonni maʼlum kasalliklardan himoya qilgan (profilaktika) yoki shunday kasallik alomatlari sezilganda ulardan qutilishga koʻmaklashadiganlari ham koʻp. Maʼlumki tikuvchilar, doʻppidoʻzlar, maxsi tikuvchilar maʼlum nuqtaga muttasil koʻzlarini qadm ish bajaradilar. Koʻz mushaklari ish davrida chegaralangan darajada harakat qiladi.

Xalq milliy oʻyinlari orqali bolalarni maʼnaviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolalarda oʻz Vatanini sevish, uning boyliklari qadriga yetish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qoʻshiqlardan zavqlanish tuygʻulari, shuningdek, oʻsib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabrtoqatlilik, tezkorlik, ildamlilik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi. Xalq milliy oʻyinlarini maktabgacha taʼlim muassasalarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- xalq milliy oʻyinlarining turlari va ularni tashkil etish yoʻllari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;
- milliy oʻyinlarni tashkil etishda maʼnaviy qadriyatlar va urfodatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlool ruhida tarbiyalashda xalq milliy oʻyinlaridan maqsadli foydalanish;
- xalq ertaklari, xalq ogʻzaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;
- bolalarning oʻynashlari uchun shartsharoit (oʻyin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;
- maktabgacha taʼlim tashkilotlari, oila va mahallalar oʻrtasida milliy oʻyinlar boʻyicha koʻrik tanlovlari va musobaqalar oʻtkazish. Milliy harakatli oʻyinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, oʻyindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1—2 yoshli bolalar bilan oʻynaladigan oʻyin turlari. «Barmoqqabarmoq», «Gʻozgʻoz», «Gʻoz tursin», «Boʻpboʻp», «Toyttoy», «Poyezd», «Achomachom» oʻyinlari goʻdak endi birikki qadam tashlashni oʻrganayotgan vaqtda gavdasini toʻgʻri tutishga yordam beradigan oʻyinlar hisoblanadi.

3—4 yoshli bolalar bilan oʻynaladigan oʻyin turlari: «Ot oʻyin», «Kesak qoʻydi», «Koʻz boylagich», «Choriy chambar», «Avvalakam», «Tayoq irgʻitish», «Quloq choʻzish», «Chitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdiuchdi».

4—5 yoshli bolalar bilan oʻynaladigan oʻyin turlari: «Chiraylanma», «Chillak», «Tortishmachoq», «Lafta», «Dor oʻyin», «Koʻpkari», «Berkinmachoq», «Jami», «Chertan devor girgir aylan».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ayrapyans L.P. "Milliy sport turlari va o'yinlarning rivojlantirishning muommolari. Toshkent-1998 yil
2. "1001 o'yin" T.Usmonxo'jayev Toshkent-1995 yil
3. YU. Portnex "Sport va harakatli o'yinlar". Moskva-1997 yil.
4. Ayrapyans L.P. "Milliy sport turlari va o'yinlarning rivojlantirishning muommolari. Toshkent-1998 yil
5. "1001 o'yin" T.Usmonxo'jayev Toshkent-1995 yil
6. F.Xo'jayev. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan harakatli o'yinkar". TOSHKENT – 2022